

HUQUQNI QO'LLASHNI TADBIQ ETISH VA QONUN USTUVORLIGINI TAMINLASH

Kalibaev Sultanbay Dawletbay o'g'li

*Qoraqolpog'iston qishloq-xo'jaligi
va agrotexnologiyalar institutining*

*"Meva savzavodchiligi maxsulotlarini
qayta ishlash texnologiyasi. Yurisprudenciya"*

yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Qoraqolpog'iston, Nukus

Anotatsiya: Huquqni qo'llashni tadbiq etish, qonun ustuvorligini taminlash, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy normalarning hayotga tadbiq etilishi, huquqni tadbiq etishning normativ xujjatlarda ko'rsatilgan qoidalari, huquqni tadbiq etishning shakllari, huquqiy demokratiyaga asoslangan jamiyatda qonun ustuvorligi principini ta'minlovchi asosiy shartlar

Kalit so'zlar: Konstituciya, huquq, tadbiq etish, davlat, qonun, modda, kodeks, idora, sud, fuqaro.

Hozirgi kunda yangilanayotgan O'zbekistonda Konstituciya o'zgarishlar va qo'chimchalar kiritish yo'lga qo'yilmoqda. Bu albatta xalqimiz manfaatlari uchun xizmat qilishi aniq. Har bir fuqaro Konstituciyamiz qonunlari bilan yaqindan tanish bo'lishi, uni o'z foydasi uchun qo'llay bilishi va shu bilan bir qatorda o'z majburiyatlarini ham unutmash zarur. Huquq — davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy, majburiy, ijtimoiy normalar tizimi. U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi. Huquq normalari xayotga tadbiq etilsagina u mazmun kasb etadi va jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'ladi. Agarda huquq tadbiq etilmas ekan oxir oqibatda u o'zining moxiyatini butunlay yo'qatadi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning samarasi ko'p jixatdan huquq normalarini to'g'ri tadbiq etishga bog'liq. Darxaqiqatki mavjud huquq normalarini amalga qo'llamasdan turib, davlat ijtimoiy munosabatlarni o'z maqsadi yo'lida tartibga sololmaydi. Eng umumiy va keng ma'noda olganda, huquqiy normalarni tadbiq etish – bu huquqiy normalar yordamida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishdir. Huquqni tadbiq etish – bu davlat tomonidan yuridik jixatdan mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarning amalga oshirilishi xamda ularning tashkilotlari faoliyatida xayotga tadbiq etishdir. Huquqiy normalarni tadbiq etish – bu huquqiy normalarni amalga oshirish demakdir. Yangilanayotgan O'zbekistonimizda Konstituciya albatta xalqimiz foydasiga ishlashi zarur. «Tadbiq» so'zi lotinchadan olingan bo'lib, “realis”, moddiy

yoki moddiylashtirish degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kunda bu so'z ko'proq u yoki bu rejani dastur va loyxlarni, maqsadlarni xayotda amalga oshirish yoki ularni tadbiiq etish ma'nosida qo'llaniladi. «Huquqni tadbiiq etish» termini yuqoridagi mazmunga mos keladi. Darxaqiqat, huquq nomoddiy ko'rinishga ega bo'lsa xam, u kishilarning faoliyatlarida, faol huquqi va yurish-turishlarida, ularning moddiy va ma'naviy qadriyatlardan foydalanganlarida tadbiiq etilib moddiylashadi. Huquqni tadbiiq etish murakkab jarayon bo'lib, u ma'lum muddat mobaynida amalga oshiriladi. Bu jarayonni nafaqat sub'ektiv huquq va majburiyatlar egalari (shaxslar), balki davlat ham o'zining organlari, ya'ni huquqni ijod qiluvchi, huquqni ijro qiluvchi, huquqni qo'llovchi organlar orqali ishtirok etadi. Huquqni tadbiiq etishning normativ xujjatlarda ko'rsatilgan qoidalarni qo'llanish darajasiga ko'ra uch xil shaklini ko'rsatish mumkin:

- 1) Huquqiy faoliyat amalga oshiriladigan umumiy vazifalar va tamoyillar o'z ifodasini topgan qonunlar xamda moddalarning muqaddimalarida ko'zda tutilgan umumiy ko'rsatmalarni tasdiq etish;
- 2) Huquq sub'ektlarining huquqiy xolatini, xamda vakolatlar doirasini o'rnatuvchi umumiy normalarni tadbiiq etish;
- 3) Muayyan munosabatlarda muayyan huquqiy normalarni tadbiiq etish;

Huquqni tadbiiq etish subyektlariga ko'ra uning quyidagicha turlarini ko'rsatish mumkin: individual va jamoa tomonidan tadbiiq etish. Huquq normalarining amalda qo'llanilishi uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning ma'lum darajadagi amaliy faoliyati talab qilinadi. Huquq normalari kishilarning muayyan munosabatlariga nisbatan tadbiiq qilinadi va shunga ko'ra konkret huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki to'xtatilishi sodir bo'ladi. Huquqni tadbiiq etuvchi subyektlar faoliyati xarakteriga ko'ra - huquq normasiga rioya qilish, huquq normasini bajarish, huquq normasidan foydalanish va huquq normasini qo'llashning ahamiyati katta. O'zbekistonda albatta huquqni qo'llashni tadbiiq etish uchun qonun ustuvorligini ham taminlash zarur. Huquqiy demokratiyaga asoslangan jamiyatda qonun ustuvorligi principini ta'minlovchi asosiy shartlar quyidagilardan iborat.

- 1) Hokimiyatlar bo'linishi principining real joriy etilganligi. Bu principga ko'ra qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'g'inlari o'zlarining Konstituciya va qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar.

O'zbekiston Respublikasining Konstituciya va qonunlariga O'zbekiston Respublikasida yashovchi nafaqat fuqarolar, uni qo'llovchi davlat idoralari va mansabdor shaxslar ham, shuningdek, qonunlarni yaratuvchi hokimiyat organi ham itoat etishga majbur. Hokimiyatlarning oqilona taqsimlanishi davlat tuzilmalarining samarali ish olib borish, i suiste'mollarning bartaraf etilishi, inson huquq va erkinliklari

amalda ta'minlanishi, umuman, demokratiya va qonun ustuvorligining muhim garovi bo'lib hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstituciyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstituciya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir. Prezident o'z farmonlari va huquqiy qarorlari bilan Konstituciyaviy tamoyillarning qonunlarda mustahkamlangan qoidalarining hayotga to'la joriy etilishi uchun yo'l ochadi, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Prezidentning o'zi qonunlarga qat'iy amal qilishi bilan davlat idoralari va mutasaddi shaxslar uchun ibrat, namuna ko'rsatib, ularni ham Konstituciya va qonunlarga rioya etishga safarbar etadi. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda aholining huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar olib bormoqta. Konstituciya xaqimiz foydasiga xizmat qilishi uchun ko'pgina o'zgartirishlar kiritildi. Masalan oddiy misol bilan aytadigan bo'lsak oldinlari o'qtuvchilar ish faoliyatidan tashqari mehnatga jalb etilgan bo'lsa hozirgi kunda o'qtuvchining huquq va erkinliklari, ularni hech kim majburiy mehnatga jalb qilishga haqqi yo'q ekanligi Konstituciyamizda belgilab qo'yilgan.

3. Qonunlar va barcha normativ huquqiy aktlar Konstituciyaga tamomila mos va unga muvofiq yaratilishi lozim. Bu esa mamlakatda qonuniylik va huquqiy tartibot, taraqqiyot va barqarorlik hukm surishiga olib keladi.

Asosiy qonunimiz bo'lgan Konstituciyamizda “Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstituciya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas” deb ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstituciyaviy sudi ana shu muhim Konstituciyaviy-huquqiy principiga rioya etishni ta'minlashga harakat qilmoqda.

Konstituciyaning ustuvorligini ta'minlash uchun alohida muhofaza mexanizmi bo'lishini lozim. Bunday mexanizmning asosiy va markaziy bo'limini – Konstituciyaviy sud tashkil etadi. Konstituciyaviy sud o'z vazifalarini bajarishda mustaqildir va o'z faoliyatida faqat Konstituciya normalari hamda qoidalariga amal qiladi. Uning zimmasiga qonun chiqaruvchi, hukumat va davlat hokmiyati mahalliy organlarining qarorlari Konstituciyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Konstituciyaga sodiqlik, mustaqillik, oshkoralik va sudyalar huquqlarining tengligi Konstituciyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari bo'lib hisoblanadi.

4. Qonun ustuvorligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi vositalardan biri kodekslashtirishdir. Kodekslar huquq tarmog'ining bosh qonuni sifatida Konstituciya prinsiplarini rivojlantirish yo'lida yaratiladi va ular Konstituciya qonunlaridan keyingi mavqeni egallaydi.

5. Qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy omillarini quyidagicha e'tirof etish mumkin;

-Qonunning sifatini mukammallashtirish, uning ichki ishlash foaliyati puxta, yuridik texnika nuqtai nazaridan benuqson bo'lishiga erishish;

-Qonunchilik faoliyatining yaqin yillar va istiqbolga mo'ljallangan strategiyasini hamda qonun ustuvorligini ta'minlash koncepciyasini yaratish;

-Qonunlar amal qilishining ijtimoiy mexanizmiga e'tibor qaratish. Bu sohadagi ijtimoiy omillar, ta'sir etuvchi kuchlar, vositalarni sinchiklab organish;

-Aholining huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish.

6. Qonunlarning barqaror va ustuvor bo'lishiga erishish. Ularga tez-tez qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish natijasida qonunning ahamiyati va nufuzi tushib ketishiga olib keladi.

7. Jinoiy jazolarni liberallashtirish qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Umimiy qilib aytadigan bo'lsak hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, sai-y-harakatlarning barchasi Vatanimiz ravnaqi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Konstituciya esa Vatanimiz tinchligi, ravnaqi uchun xizmat qiladi. O'zbekiston Konstituciyasi oldida albatta O'zbekistonda yashovchi barcha fuqarolar yuridik, mansabdor shaxslar umuman barcha tengdir. Yangi O'zbekistonni barpo etishda Konstituciyaga bo'ysinish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, huquqni qo'llashni tadbiiq etish va qonun ustuvorligini taminlash katta ahamaiyat kasib etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. -T.: TDYUI, 2004.

2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston" 2017y.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, NMIU, 2018

4. Tadjibayeva O.A., Ramazonova N.K. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma.- Toshkent:"O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.

5. Davlat va huquq nazariyasi. Mas'ul muharrirlar H.B. Boboyev, H.T.Odilqoriyev -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2000.

6. Islomov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi. T.:TDYUI, 2005.

7. Boboyew H.B., Odilqoriyev H. T. Davlat va huquq nazariyasi. T. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi». 2000-y